

Date: 29th January-2026

ADABIY QAHRAMONLARNING IJTIMOIIY ROLI VA AXLOQIY-RUHIY
DUNYOSI

Toshboyeva Farida Abduxalilovna

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida mustaqil tadqiqotchi

ORCID- (0009-0008-4251-9907)

toshboyevafarida46@gmail.com

[Tel:+998888420830](tel:+998888420830)

Annotatsiya: Maqola adabiy qahramonlarning ijtimoiy roli va axloqiy-ruhiy dunyosini tahlil qiladi. Tadqiqotda qahramonlarning jamiyatdagi mavqe, axloqiy qadriyatlar, ruhiy holat va psixologik xususiyatlari, shuningdek, ular orqali adabiyotning ijtimoiy va ma'naviy vazifasi aks ettirilishi ko'rib chiqiladi. Maqola o'zbek va rus adabiyotidagi turli qahramonlar misolida qiyosiy tahlilni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: adabiy qahramon, ijtimoiy rol, axloqiy-ruhiy dunyo, psixologik tahlil, ma'naviy qadriyatlar, o'zbek adabiyoti, rus adabiyoti, qiyosiy tahlil.

Аннотация: В статье анализируется социальная роль и морально-духовный мир литературных героев. Исследование рассматривает положение героев в обществе, моральные ценности, психическое состояние и психологические характеристики, а также отражение через них социально-духовной функции литературы. В статье представлен сравнительный анализ на примере различных героев узбекской и русской литературы.

Ключевые слова: литературный герой, социальная роль, морально-духовный мир, психологический анализ, духовные ценности, узбекская литература, русская литература, сравнительный анализ.

Abstract: The article analyzes the social role and moral and spiritual world of literary heroes. The study examines the position of heroes in society, moral values, mental state and psychological characteristics, as well as the reflection of the social and spiritual function of literature through them. The article includes a comparative analysis on the example of various heroes in Uzbek and Russian literature.

Keywords: literary hero, social role, moral and spiritual world, psychological analysis, spiritual values, Uzbek literature, Russian literature, comparative analysis.

Kirish. Sharq va G'arb adabiyotlari insoniyatning eng qadimiy ma'naviy meroslari hisoblanib, ularning rivojlanish yo'li turli madaniy va tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq. Bu ikki adabiyotning markaziy unsurlaridan biri qahramon obrazlari bo'lib, ular har bir jamiyatning asosiy qadriyatlarini, orzu-umidlarini va muhim madaniy prinsiplarini aks ettiradi. Qahramonlar milliy va madaniy identifikatsiyaning ramzi sifatida har bir xalqqa o'ziga xos ruhiy va axloqiy yo'nalish beruvchi asosiy obrazlar bo'lib kelgan (Campbell, 2008). Sharq adabiyoti qahramonlarining tasviri ko'pincha oilaviy va ijtimoiy



Date: 29th January-2026



mas'uliyatni birinchi o'ringa qo'yadi. Masalan, o'zbek xalq eposidagi Alpomish obrazi jasorat, sadoqat va vatanparvarlikning timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Bu qahramonning barcha harakatlari uning jamiyatga xizmat qilish va oilasini himoya qilish maqsadlariga yo'naltirilgan. Sharqda qahramonlar ko'pincha kollektiv qadriyatlarni ulug'laydi, bu esa jamiyatning birlikka bo'lgan e'tiborini aks ettiradi (Mukarramov, 2003). Alpomish singari qahramonlar o'z shaxsiy manfaatlarini ikkinchi darajaga qo'yib, oila, xalq va millat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi. G'arb adabiyotida esa qahramonlarning shaxsiy o'zini topishga bo'lgan intilishlari ko'proq namoyon bo'ladi. Misol uchun, Gomerning Iliada asaridagi Axilles obrazi shaxsiy jasorat va shon-shuhrat sari intilishni o'zida aks ettiradi (Frye, 1957). G'arb qahramonlari ko'pincha o'z ichki dunyosini o'rganish va shaxsiy maqsadlarini amalga oshirish yo'lida harakat qilishadi. Shu sababli, G'arb adabiyoti qahramonlari individuallik va shaxsiy erkinlikni ulug'laydi. Bunday qahramonlarning harakati jamiyat uchun muhim bo'lsa-da, ular ko'pincha o'z ichki konfliktlarini hal qilishga qaratilgan bo'ladi (Knox, 1964). Sharq va G'arb adabiyotidagi qahramon obrazlari orasidagi bu madaniy o'xshashlik va farqlar faqat adabiy asarlar doirasida qolib ketmay, balki turli xalqlarning tarixiy va ijtimoiy sharoitlarini ham aks ettiradi. Sharq xalqlari ko'proq jamoaviy manfaat va o'zaro yordamga e'tibor qaratgan bo'lsa, G'arb jamiyatlari individuallik va shaxsiy muvaffaqiyatni qadrlaydi. Ushbu madaniy tafovut qahramonlar obrazlarida o'zining yorqin ifodasini topgan.

Sharq va G'arb adabiyotidagi qahramon obrazlarini qiyosiy o'rganish jarayonida adabiy manbalarni tahlil qilish muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi Sharq adabiyotida qahramon obrazlari qanday shakllanganini va G'arb adabiyotida ular bilan qaysi jihatlarida o'xshashlik yoki tafovutlar borligini aniqlashdir. Tadqiqot uchun tanlangan manbalar Sharq va G'arb madaniyatining eng muhim epos va afsonalarini qamrab oldi. Ushbu manbalarning har biri o'z davrining ijtimoiy, madaniy va axloqiy tamoyillarini aks ettirib, qahramon obrazlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Alpomish Eposi. Sharq adabiyoti uchun "Alpomish" eposi tadqiqotning markaziy asari sifatida tanlandi. Bu epos o'zbek xalqining asrlar davomida og'zaki ijod orqali shakllangan eng muhim adabiy merosidir. "Alpomish" eposi o'zbek xalqining tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Ushbu asarda qahramon obrazi kata ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Alpomish oilaviy qadriyatlarni himoya qilish, jamiyatni birlashtirish va adolatni tiklash kabi asosiy tamoyillarni hayotga tatbiq etadi (To'raqulov, 2015). Eposdagi voqealar rivoji qahramonning jasorat, sabr-toqat va mehr-muhabbat kabi fazilatlarini namoyon qiladi. Masalan, Alpomishning qarindosh-urug'larini himoya qilish uchun qilgan kurashlari va uning uzoq safarlar davomida boshdan kechirgan sinovlari xalq an'analari va qadriyatlarining timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu obraz orqali o'zbek xalqining oilaga, jamiyatga va insoniylikka bo'lgan yuksak hurmati ifodalanadi. Bundan tashqari, "Alpomish" eposida tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlik ham yorqin tasvirlangan. Bu jihat Sharq adabiyotining boshqa asarlarida ham uchraydi va tabiatning qahramon hayotidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi. Misol uchun,

Date: 29th January-2026

Alpomishning otasi Barchin oyimning sevgisini qozonish uchun qilgan kurashlari va tabiat bilan uyg'unlikda bo'lib yashashi eposning asosiy voqealarini belgilaydi. Shu bilan birga, Alpomishning o'z xalqi va yurtini himoya qilish yo'lida ko'rsatgan jasorati Sharq qahramon obrazlariga xos universal qadriyatlarni ifodalaydi.

Sharq va G'arb adabiyotidagi qahramon obrazlarini qiyosiy tahlil qilish madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlil jarayoni har ikki adabiy makonda qahramonlik tushunchasi qanday shakllanganini, uning zamon va makonga bog'liq o'ziga xosliklarini aniqlashni maqsad qiladi. Qiyosiy yondashuv orqali qahramonlarning xarakterlari, ularning harakat motivatsiyalari va ular aks ettirgan madaniy tamoyillarni chuqurroq tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Sharq adabiyotida qahramon obrazlari asosan jamiyatning birligi, oilaning muqaddasligi va adolatni himoya qilish kabi tamoyillar asosida shakllangan. Bu qahramonlar o'z harakatlari orqali jamoaning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi. Masalan, "Alpomish" eposidagi qahramon oilaviy qadriyatlarni himoya qilish yo'lida jasorat ko'rsatadi. Alpomishning boshdan kechirgan sinovlari va uning shaxsiy fidoyiligi nafaqat uning oilasi uchun, balki butun jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan yuksak qadriyatlarni namoyon etadi. Sharq adabiyoti qahramonlarining yana bir xususiyati ularning jamiyatga nisbatan mas'uliyatli bo'lishidir. Misol uchun, Alpomishning oilasi va yurtini himoya qilishda ko'rsatgan faoliyati, uning har bir qarori va harakati xalqi uchun muhim o'rin tutadi. Bu jihatlarda Sharq madaniyatidagi qahramonlik tushunchasining asosiy tamoyillarini belgilaydi. Bundan tashqari, Sharq qahramonlari o'z hissiyotlari va axloqiy tamoyillarini doimiy nazorat ostida ushlab, ulkan ijtimoiy vazifalarni bajarishga intiladi.

Alisher Navoiy ijodida "qahramonlik" tushunchasi. Navoiy ijodi o'zbek adabiy tafakkurining eng yuksak bosqichi bo'lib, unda insoniylik, oliyjanoblik, saxovat, muhabbat, adolat, ruhiy kamolot va ma'naviy yuksalish singari g'oyalar yuksak o'rin tutadi. Navoiyning qahramonlikka munosabati epik asarlardagi jismoniy jasoratdan ko'ra kengroq ma'noga ega bo'lib, ijodkor uni ruhiy qudrat, axloqiy komillik, yaxshilik va ezgulik, ilm va adolat yo'lida fidoyilik nuqtai nazaridan talqin qiladi. Navoiy qahramonlikni faqat jang maydonidagi mardlik emas, balki ichki dunyo pokligi, halollik, maqsadga sodiqlik, o'zlikni anglash kabi yuksak ma'naviy fazilatlar bilan bog'lab ko'rsatadi. Navoiy dostonlari, xususan "Xamsa" asarlaridagi qahramonlar qiyofasida bu tushuncha o'zining eng yetuk badiiy ifodasini topadi.

Farhod obrazi: mehnat va muhabbatda qahramonlik. Navoiy ijodiy olamida yaratgan eng yorqin qahramonlardan biri — Farhod. "Farhod va Shirin" dostonida "qahramonlik" kuch-qudrat bilan emas, mehnat, matonat, insoniylik va muhabbat yo'lidagi fidoyilik bilan talqin qilinadi. Farhodning Behustun tog'larini teshib, suv chiqarishi — epik adabiyotda kam uchraydigan mehnat orqali, mashaqqatlar orqali qahramonlikning badiiy ko'rinishidir. Navoiy bu obraz orqali: halol mehnatning ulug'ligi, jamiyatga foyda keltirishning qahramonlik darajasiga ko'tarilishi, insonning o'z maqsadi yo'lida bardoshli va sobitqadam bo'lishi singari g'oyalarni ilgari suradi. Farhodning sevgidagi sadoqati "ruhiy qahramonlik" hisoblanadi. Farhod Shiringa erishish uchun dushmanlar fitnasiga qaramay,



Date: 29th January-2026

sinovli yo'llarni bosib o'tib, halok bo'lishga rozi bo'lsa ham, sadoqatini buzmaydi. Navoiy qahramonlikning eng yuksak ko'rinishini muhabbat yo'lida jonini ham ayamaydigan komil inson sifatida talqin qiladi.

Iskandar obrazida adolatparvarlik va ilm qahramonligi. "Saddi Iskandariy"da ijodkor tarixiy shaxs Iskandar obrazini badiiy-falsafiy darajada qayta jonlantirar ekan, uni adolatparvar hukmdor, ilm va ma'rifat homiysi, insoniyat tinchligi va farovonligi uchun kurashuvchi donishmand sarkarda sifatida talqin qiladi. Navoiy Iskandarning qo'shin kuchi bilan emas, adolat bilan dunyoni egallagan qahramon sifatida ko'rsatadi. Iskandarning qahramonligi zolim hukmdor va amaldorlarni jazolash, zulm ostidagi xalqlarga ozodlik berish, el-yurt tinchligini ta'minlash, obodonchilik va farovonlik kabi amallarda namoyon bo'ladi. Iskandar ilm-ma'rifat yo'lida ham fidoyilik qiladi. Navoiy uchun haqiqiy qahramon — ilmni qadrlaydigan, donishmandlar maslahatiga quloq tutadigan, bilimsiz kuchni kuch deb tan olmaydigan, ilm-fanga homiylik qiladigan insondir. Shuning uchun Iskandar dostonlarda olimlar bilan suhbat qiluvchi, ilm ahliga hurmat bildirib, ularning maslahatisiz ish boshlamaydigan, ma'rifatni davlatning asosiy ustuni deb biladigan va ilm-fanning yuksalishi uchun homiylik qiladigan hukmdor sifatida gavdalanadi. Bu talqin Navoiyning qahramonlikka yangicha, ilm-ziyo jihatidan yondashuvini ko'rsatadi.

"Layli va Majnun" dostonida ruhiy-axloqiy qahramonlik talqini. "Layli va Majnun" dostonida qahramonlik jang, kuch yoki hukmronlikka emas, balki ruhan poklanish, sevgi yo'lidagi qurbonlik, samimiylik kabi ma'naviy fazilatlarga asoslanadi. Majnun — "ruhiy qahramonlik" timsoli. Majnunlik qahramonligi jamiyat qoidalariga qarshi turish, o'zining ichki dunyosiga sodiq qolish, haqiqiy sevgi yo'lidagi azob-uqubatlarga chidash kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi.

Jadid adabiyotida qahramonlikning gavdalanishi. Jadidchilik harakati XX asr boshlarida Turkistonning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida mustaqillikni, yangilanish g'oyalarini ilgari surgan ulkan ma'rifiy oqim sifatida maydonga chiqdi. Bu davr adabiyotida "qahramonlik" tushunchasi yangicha mazmun kasb etdi: endi qahramon qilich ko'tarib jangga kirgan bahodir emas, balki ilm-ma'rifat targ'ibotchisi, zulmga qarshi fikr bilan kurashuvchi, millat uyg'onishi uchun o'z tinchligidan, jonidan voz kechgan ma'rifatparvar sifatida gavdalanadi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, natijalar shuni ko'rsatdiki, Sharq va G'arb adabiyotidagi qahramon obrazlarining qiyosiy tahlili bir tomondan ularning ijtimoiy, madaniy va axloqiy ildizlarini chuqurroq tushunish imkonini bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa madaniy kontekstlar, tarixiy davrlar va an'analarning qahramon obrazlari yuzaga kelishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashga yordam berdi. Olingan natijalar universal qadriyatlarga tayanib, bir-biriga o'xshash qahramonlar ham, o'ziga xos farqlarga ega bo'lgan qahramonlar ham insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi ekanini isbotladi. Natijada, qahramon obrazlari tadqiqi madaniyatlararo muloqot, adabiy merosni anglash va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarni qadrlash uchun muhim manba sifatida yana bir bor tasdiqlandi.



Date: 29th January-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Козокбой Юлдошов. Бадий тахлил асослари. Тошкент: 2016.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Akademnashr, 2010.
3. Qozoqboy Yo'ldoshev. Yoniq so'z . -Toshkent: 2006.
4. Erkin Xudayberdiyev, Adabiyotshunoslikka kirish. -Toshkent: 2008.
5. Hojiahmedov A. Xamsa. To'plam. – T. Yangi asr avlodi.2010
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami: 20 tomlik. T. Fan. 2003
7. Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. T. Fan.2000
8. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. Journal of Law and Sustainable Development, 11(12), e2676.

